ADABIYOTSHUNOSLIK

**UDK: 811.512.133’373** **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a92**

# SHE’RIY NUTQDA TOPONIMLARNING QO‘LLANISHI VA VAZIFALARI

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТОПОНИМОВ В ПОЭТИЧЕСКОЙ РЕЧИ И ИХ ФУНКЦИИ

# APPLICATION AND FUNCTIONS OF TOPONYMS IN POETIC SPEECH

**Uluqov Nosirjon Muhammadalievich[1], Siddiqova Naima[2]**

**[1]Uluqov Nosirjon Muhammadaliyevich** – Namangan davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori.

**[2]Siddiqova Naima** – Namangan davlat universiteti magistranti.

***Annotatsiya***

*Maqolada joy nomlari – toponimlarning o‘zbek she’riy nutqqa xos uslubiy, badiiy-estetik vazifalari hamda lingvopoetik vosita sifatida qo‘llanish xususiyatlari dalillar asosida yoritilgan. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf she’riyati misolida toponimlar lisoniy asos bo‘lgan badiiy-uslubiy vositalar va she’riy san’atlar leksik-semantik, uslubiy, lingvopoetik tahlil metodlari asosida tadqiq etilgan. Xoronim, polisonim, komonim, gidronim kabitoponimik birliklarning boshqa onomastik birliklar singari she’riy nutqda lingvopoetik, uslubiy vazifalar bajarishi dalillangan.*

***Аннотация***

*В статье на основе фактических данных анализируются стилистические, художественно-эстетические функции наименований мест – топонимов в узбекской поэтической речи, а также особенности использования их в качестве лингвопоэтического средства. На примере поэзии Эркина Вохидова, Абдуллы Орипова, Мухаммада Юсуфа на основе лексико-семантических, стилистических, лингвопоэтических методов анализа исследованы топонимы как лингвистическая основа художественного средства и поэтического искусства. Доказана лингвопоэтическая, стилистическая функция топонимических единств как и хоронимов, полисонимов, комонимов, гидронимов и других ономастических единств в поэтической речи.*

***Abstract***

*In the article, the stylistic, artistic and aesthetic functions of place names – toponyms specific to Uzbek poetic discourse, as well as the characteristics of their use as a linguopoetic tool, are highlighted on the basis of evidence. In the case of Erkin Vahidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf's poetry, toponyms are linguistically based artistic-methodical tools and poetic arts are researched on the basis of lexical-semantic, methodological, linguopoetic analysis methods. It is proved that toponymic units such as choronym, polysonym, commononym, hydronym perform linguopoetic and methodological functions in poetic speech like other onomastic units.*

***Kalit so‘zlar:*** *onomastik birlik, toponim, xoronim, polisonim, komonim, gidronim, tarixiy toponim, lingvopoetika, lingvopoetik vosita, lingvokul’turologiya, allyuziv nom, allyuziv toponim, she’riy san’at, talmeh, tashxis, mubolag‘a, o‘xshatish.*

***Ключевые слова:*** *ономастическое единица, топоним, хороним, полисоним, комоним, гидроним, исторический топоним, лингвопоэтика, лингвопоэтическое средство, лингвокультурология, аллюзивное название, аллюзивный топоним, поэтическое искусство, талмех, ташхис, гипербола, сравнение.*

***Key words:*** *onomastic unit, toponym, horonim, polysonym, comonym, hydronym, historical toponym, linguopoetics, linguopoetic means, linguoculturology, allusive name, allusive toponym, poetic art, auxiliary word, diagnosis, hyperbole, analogy.*

## KIRISH

Badiiy matnda tilning barcha imkoniyatlari namoyon bo‘ladi. Badiiy matnda, xususan, she’riyatda onomastik birliklar badiiy-uslubiy vazifalarni bajaradi. Til va adabiyot bir-biriga shu qadar aloqadorki, tildagi har bir birlik badiiy asar tiliga ko‘chganda, o‘zining yuzlab, minglab qirralarini namoyon eta olish xususiyatiga ega. Til o‘zining ekspressivlik xususiyatini badiiy asarlarda ifoda etadi.

She’riy nutqda qo‘llangan har qanday til birligi muayyan lisoniy, badiiy-estetik vazifa bajaradi. Toponimlar ham badiiy, jumladan, she’riy nutqda sarlavha, she’riy san’at va uslubiy vositalar sifatida qo‘llanib, o‘ziga xos ekspressiv-emotsional, lingvopoetik vazifalarni bajaradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbek tilshunosligida onomastikaga doir tadqiqotlar doirasida D.Xudoyberganova, D.Andaniyozovalar badiiy nutqqa xos onomastik birliklar, xususan, pretsedent nomlar, poetonimlarning allyuziv matnda qo‘llanishi, lingvopoetik tabiatini [1], Sh.Yoqubov Alisher Navoiy asarlari onomastikasini [2], B.Yo‘ldoshev badiiy asar sarlavhalarining semantik va grammatik

jihatlarini [3], B.O‘rinboev, N.Oxunovlar badiiy matnlarda atoqli otlarning qo‘llanishi, jumladan, antroponim va toponimlarning uslubiy, badiiy xususiyatlarini[4,5], A.Primov kosmonimlarning uslubiy qirralarini[7] o‘rgangan.

N.Husanov o‘zbek yozma yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini [8], M.Mamajonov antroponimlarning diskurs relevanti sifatidagi uslubiy-funksional, semantik hamda kommunikativ xususiyatlarini [9], F.Rajabov Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlarini [10] monografik tadqiqi etgan, biroq onomastik birliklar, xususan, toponimlarning she'riy san'atlar, badiiy-uslubiy, lingvopoetik vositalar hosil qilishdagi o‘rni va vazifalari, lingvopoetik qirralari o‘rganilmagan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Vatan, ona-yurt mavzusidagi ko‘p faxriya, bag‘ishlov she’rlariga toponimlar, shahar nomlari turli shakllarda sarlavha qilib olinadi. Jumladan, E.Vohidovning “O‘zbekiston” (faxriya), “Samarqand”,“Baxmal” (voqeiy qissa); A.Oripovning “O‘zbekiston”,“Armaniston”, “Qozog‘iston”, “Kavkaz”, “Ozarbayjon”; Muhammad Yusufning “Toshkent”, “Samarqand”, “Mingtepa”, “Andijonim”, “Andijon”, “Marg‘ilon”, “Shahrixon”, “Farg‘onajon”, “Orol”, “Marg‘ilonda” kabi she’rlari buning yorqin dalilidir. Bunday sarlavhalar birinchidan, she’rning mavzusiga ishora qiladi, yorqin ifodalaydi, ikkinchidan, asarning faxriya yoki bag‘ishlov ekanligini ko‘rsatib turadi. Shuningdek, yurt, Vatan mavzusidagi ko‘p she’rlarga tarixiy toponimlar – mamlakatimiz, shahar va qishloqlarimizning tarixiy nomlari sarlavha qilib qo‘yiladi va madh etiladi. Muhammad Yusufning “Ona Turkiston”, “Turkiston madhiyasi”, “Mingtepa” she’rlari kabi. Bunday toponimlar bilan atalgan sarlavhalar yuqoridagi vazifalarga qo‘shimcha tarzda tarixiy koloritni ifodash va yuksak poetik uslubni yaratishga xizmat qilgan.

Toponimlar boshqa atoqli otlar kabi poetik undalma sifatida qo‘llanib, nido (ar. – qichqiriq, chaqiriq, undov) san’ati – o‘y-fikr, his-tuyg‘u, kechinmalarni murojaat tarzida bayon etilishiga lisoniy asos bo‘ladi. E.Vohidov, A.Oripov, M.Yusufning she’rlarida mamlakatimiz, vatanimiz nomi – O‘zbekiston xoronimi murojaat birligi sifatida qo‘llanib, nido san’atini hosil qilishda lingvopoetik vosita bo‘lgan[9].

*Yurtim, senga she’r bitdim bu kun,*
*Qiyosingni topmadim aslo.*
*Shoirlar bor – o‘z yurtin atagan butun*
*Olam aro atagan tanho.*
*Ular she’ri uchdi ko‘p yiroq,*
*Qanotida kumush diyori.*
*Bir o‘lka bor dunyoda biroq*
*Bitilmagan dostondir bori.*
*Faqat ojiz qalamim manim,*
***O‘zbekiston** – vatanim manim!*

(A.Oripov. O‘zbekiston)

Mazkur she’rlarda lirik qahramon ona yurtiga o‘zining eng yaqin, eng suyukli kishisiga so‘zlagani kabi egalik shaklida O‘zbekistonim deb murojaat qilishi she’rda samimiyatni yuzaga keltirishda, vatanga bo‘lgan chuqur muhabbat tuyg‘ularini ifodalashda lingvopoetik vosita bo‘lib kelgan:

*... Hali olis edi sen kutgan najot.*
*Erk deb atalgan tabarruk shamga*
*Intilding bir umr parvona bo‘lib.*
*Parvonadek kuyib o‘rtangan jonim – **O‘zbekistonim.***

(E.Vohidov. O‘zbekiston)

A.Oripov shaharlar madhi, ta'rif-u tavsifiga bag‘ishlangan she’rlariga shahar nomlarini “Termizim”, “Toshkentim”, “Toshkentim, Toshkentim...” tarzida I shaxs egalik shaklida sarlavha qilib qo‘yilishida [10] ham yuqoridagi uslubiy holat kuzatiladi. Mazkur she’rlarda toponimlarning tarixiy variantlari ham keltirilgan va shaharlar turli sifatlashlar bilan tavsiflagan.

Masalan,

*Istiqlol shavqida jo‘shgan **Toshkentim,***
*Yurtboshim nazari tushgan **Toshkentim.***

*Tongda salom bilan balqadi quyosh,*
*Unga peshvoz chiqar avval ko‘hna* ***Shosh.***

(A.Oripov. “Toshkentim”)

Muhammad Yusuf lirik murojaat shaklida bitilgan “Ona Turkiston” she’rining barcha bandlarida yurt nomi *“Ona Turkiston, senga ne bo‘ldi”* so‘roq gapi tarkibida poetik undalma vazifasida qo‘llanib, adibning yurtning tarixiga doir savollarini ta'kidli ifodalash vazifasini bajargan:

*Ey yori aziz, ey bahri quyosh,*
*Jigargo‘shangman joningga jondosh.*
*Quvonganingdan qildingmi ko‘z yosh,*
***Ona Turkiston,*** *senga ne bo‘ldi.*

(M.Yusuf.“Ona Turkiston”)

Mazkur she’rlarda aynan nido san’atining go‘zal namunalari kuzatiladi.

Atoqli otlar – onomastik birliklarga mansub toponimlar lingvokul turologiya nuqtai nazaridan allyuziv nomning bir turi – allyuziv toponim hisoblanadi. Allyuziv toponimlar – allyuziv matnlarda allyuziya ko‘rsatkichi sifatida muayyan ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qiluvchi, til egalariga yaxshi tanish bo‘lgan lisoniy, ya'ni onomastik birlik [11].

Allyuziv toponimlar she’riy nutqda faol qo‘llanadi, til jamoasiga tanish bo‘lgan mamlakat, shahar, qishloq kabi joy nomlarini ifodalaydi, ularga ishora qiladi va ular haqidagi muayyan ma'lumotlarni yodga soladi, ifodalaydi. Masalan,

*Marg‘ilon, Marg‘ilon, vodiy marjoni,*
*Payg‘ambar bog‘cham deb siylagan shahar*.[12:70].

Muhammad Yusuf she’riyatida ko‘p o‘rinlarda yurt, Vatan nomi – allyuziv toponimlar turli qofiyadosh so‘zlar bilan sifatlangan, tavsiflangan, ya'ni ohangdoshlik, musiqiylik, jozibadorlik va o‘ynoqilikka ham xizmat qilgan. Masalan, shoirning “O‘zbekiston” faxriyasida 8 o‘rinda, ya'ni har bir band yakunida *O‘zbekiston* xoronimi takror undov ohangida *bahor qo‘msab qaytgan ayvon, bolajon, yoz dasturxon, bo‘yoq Surxon, yigitchalar kezar – sulton, o‘zing makon, moviy bo‘ston, O, otamdan qolgan qo‘rg‘on* yoyiq epitetlari bilan tavsiflanish barobarida, ular tarkibidagi oxirgi *ayvon, dasturxon, Surxon, sulton, makon, bo‘ston* so‘zlariga qofiyadosh qo‘llangan. Bu, albatta, shoirning yuksak mahorati mahsulidir.

Shoir “Turkiston madhiyasi” she’rida ko‘hna yurtimizni *“Oltin beshik, olmos shamshir – tig‘ Turkiston”, “Mag‘rur chinor, yashil bayroq – tug‘ Turkiston”* kabi o‘zgacha sifatlashlar bilan tavsiflab murojaat qiladi, turkiy ellarni tarixdagidek qadimiy Turkiston atrofida birlashmoqqa chorlaydi:

*Sig‘ib kelgan qo‘rg‘oningga sig‘,* ***Turkiston,***
*Tarqab ketgan bolalaring yig‘,* ***Turkiston.***
*Oltin beshik, olmos shamshir – tig‘* ***Turkiston,***
*Dunyo bo‘lib dunyolarga chiq,* ***Turkiston!...***

(M.Yusuf. “Turkiston madhiyasi”)

She’rda 12 marta murojaat ma'nosida qo‘llangan takror-takror Turkiston geonimi mavzuga ishora qilish, yurtga murojaatni, o‘z navbatida, murojaatni ta'kidli ifodalash bilan poetik emotsionalik kasb etgan.

Ba'zan ayrim toponim va uning turlari talmeh, o‘xshatish, tashxis va mubolag‘a san’atlari uchun asos bo‘ladi. Masalan, E.Vohidov she’riyatida Yer sharidagi eng baland tog‘ sistemasini ifodalovchi *Himolay* (sanskritcha himalaya – qorlar makoni) oronimi [13:332] o‘xshatish etoloni – yuksaklik ifodasi sifatida qo‘llangan:

*So‘yla, inson,*
*So‘yla qadding*
*Ko‘tarib baland.*
*Yuksaklikda sening qadring*
***Himolay*** *monand.*

(E.Vohidov. Ruhlar isyoni)

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.Oripov she’riyatida Pomir oronimi o‘xshatish va mubolag‘a san’atlari uchun lisoniy asos bo‘lgan:

***Pomirday*** *yuksaklikdan tegramga boqsam agar*
*Ko‘zimga ko‘ringaydir Vatanim, ona xalqim.*

(A.Oripov. Qarshi qo‘shig‘i)

Bu misralarda Pomir oronimi O‘rta Osiyodagi ulkan va baland tog‘ nomi sifatida o‘xshatish etaloni sifatida shoirning yurtning yuksakligi, ulug‘ligi haqidagi poetik talqinlarini bo‘rttirilgan tarzda ifodalashga xizmat qilgan. Xuddi shu poetonim shoirning aynan shu she’rida boshqa bir o‘rinda mubolag‘a san’atiga lingvopoetik asos bo‘lgan:

*Lekin sen borsan, xalqim, ko‘kragim* ***Pomircha*** *bor.*

(A.Oripov. Qarshi qo‘shig‘i)

O‘zbek she’riyatida tinimsiz ko‘z yosh to‘kayotgan oshiqning ikki ko‘zini, shuningdek, yorning ikki o‘rim sochini *Sayhun* va *Jayhun* daryolariga o‘xshatish an'anaga aylangan. Bunda mazkur poetonimlar ham yashirin o‘xshatish, ham mubolag‘a san’ati yuzaga kelishida lingvopoetik vosita bo‘lgan[9:85-86]. Masalan,

*Nigorim chashmi ikkidur: biri yag‘mo, biri jodu,*
*Bu jodudan ikki ko‘zim*
*Biri* ***Sayhun****, biri* ***Jayhun.***

(E.Vohidov. Dutorim tori ikkidir...)

Toponimlar she’riy nutqda ko‘proq talmeh san’ati uchun lisoniy asos bo‘ladi:

*Ikki buyuk shoir, ikki musofir –*
*Navoiy* ***Hirotda, Qobulda*** *Bobur.*

(M.Yusuf. Ajab dunyo)

*Kim* ***Qashqarni*** *qildi makon,*
*Kim* ***Enasoy*** *tomonda,*
*Jaloliddin –* ***Kurdistonda,***
*Boburing –* ***Hindistonda.***
*Bu qanday yuz qarolig‘, deb*
*Yotarlar zimistonda,*
*Tarqab ketgan to‘qson olti*
*Urug‘imsan, Vatanim...*

(M.Yusuf. Vatanim)

Bu talmehning go‘zal namunalarida Muhammad Yusuf toponimlar vositasida o‘zbek xalqining buyuk shoiru allomalari, sarkarda-yu mard o‘g‘lonlari, milliy qahramonlarining qabri o‘zga yurtda musofirlikda qolganligiga, tarixiy voqelikka, haqiqatga ishora qiladi va fikrini, she’riy g‘oyani obrazlik, ta'sirchan ifodalashga erishadi.

## XULOSA

Tahlillardan ko‘rinadiki, toponimik birliklar ham boshqa onomastik birliklar singari she’riy nutqda bag‘ishlov, faxriya she’rlarda sarlavha, tashxis, o‘xshatish (tashbeh), talmeh singari she’riy san’atlariga, poetik murojaatni ifodalovchi nido uslubiy vositasiga asos bo‘lish bilan lingvopoetik, uslubiy vazifalarni bajaradi, poetik fikrni lo‘nda, obrazli, badiiy, ta’sirchan, ifodalashga xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ёқубов Ш. Юсуф атамасининг баъзи бир услубий хусусиятлари // Ўзбек тилшунослигига оид тадқиқотлар. – Тошкент, 1992. – №4. – Б.97-98; Навоий асарлари ономастикасидан // Ўзбек тилшунослигига оид тадқиқотлар.– Тошкент, 1994. – №6. – Б.91-92; А.Навоий асарларида Қорун номининг услубий қўлланиши // Жой номлари – халқ тили ва маданиятининг нодир мероси. Республика илмий–амалий конференцияси материаллари. – Навоий, 1998. –Б.25-26.
2. Йўлдошев Б. Бадиий асар сарлавҳаларининг семантик ва грамматик хусусиятлари ҳақида (Абдулла Қаҳҳор ва Саид Аҳмад асарлари асосида) // Ўзбек тилшунослиги масалалари. Мақолалар тўплами. – Самарқанд, 2001. – Б.17-23.
3. Ўринбоев Б. Бадиий матнда жой номлари ва уларнинг типологик таҳлили // Бадиий таржима ва ўзбек адибларнинг халқаро алоқалари. – Самарқанд, 1996. – Б.48-51. Эназаров Т.Ж. Бадиий асарларда жой номлари // Сборник научных трудов. ТПГУ, 1996. – С.3-5.
4. Охунов Н. Бадиий асарларда жой номлари // СМ., 1984. – №5. – Б.31-33.
5. Примов А. Огаҳий шеърларидаги Ой космониминиг услубий қирралари // Огаҳий олами. – Урганч, 2005, 2-китоб. – Б.64-66.

6. Ҳусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари доктори... дис. автореф. – Тошкент, 1996. – 66 б.

7. Мамажонов М.Ю. Антропонимлар дискурс релеванти сифатида: Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) ... дис. автореф. – Фарғона, 2020. – 60 б.

8. Rajabov F. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) ... dis. – Qarshi, 2023. – 156 b.

9. Худойберганова Д., Анданиязова Д. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016. – Б. 115.

10. Абдулла Орипов . Шоир юраги. – Тошкент: Маънавият, 2003. – 112 б.

11. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – Б. 19-20.

12. Юсуф, Муҳаммад. Улуғимсан, Ватаним. – Тошкент: O‘zbekiston, 2012. – 208 б.

13. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 11-ж. – Б. 332.